MAKTABGA TAYYORLOV BOSQICHIDA MONTESSORI METODINI QO‘LLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH VA RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI

Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20268969

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabga tayyorlov bosqichida Montessori pedagogik yondashuvini qo‘llash orqali bolalarda mustaqil fikrlash, kognitiv faollik va shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Montessori tizimining “tayyorlangan muhit”, erkin tanlov va bolaning ichki motivatsiyasiga asoslangan tamoyillari maktabgacha yoshdagi bolalarning individual rivojlanish dinamikasini faollashtiruvchi muhim omil sifatida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida erta yoshdagi bolalarning sezgir davrlariga mos pedagogik shart-sharoitlar yaratish ularning mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi
Kalit so’zlar: Montessori, maktabgacha ta’lim, mustaqil fikrlash, kognitiv rivojlanish, pedagogik yondashuv, tayyorlangan muhit, sezgir davrlar, ijodkorlik, bolalar psixologiyasi, ta’lim samaradorligi, rivojlanish kompetensiyasi, innovatsion ta’lim

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования самостоятельного мышления, когнитивной активности и личностного развития детей посредством применения педагогического подхода Монтессори на этапе подготовки к школе. Принципы системы Монтессори, основанные на «подготовленной среде», свободе выбора и внутренней мотивации ребёнка, рассматриваются как важный фактор активизации индивидуальной динамики развития детей дошкольного возраста. В процессе исследования обосновывается, что создание педагогических условий, соответствующих сенситивным периодам раннего возраста, оказывает положительное влияние на развитие у детей способности к самостоятельному принятию решений, решению проблемных ситуаций и творческому мышлению.
Ключевые слова: Монтессори, дошкольное образование, самостоятельное мышление, когнитивное развитие, педагогический подход, подготовленная среда, сенситивные периоды, креативность, детская психология, эффективность образования, компетенции развития, инновационное образование

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing independent thinking, cognitive activity, and personal development competencies in children through the application of the Montessori pedagogical approach during the school preparation stage. The principles of the Montessori system, based on the “prepared environment,” freedom of choice, and the child’s intrinsic motivation, are considered as key factors in activating the individual developmental dynamics of preschool children. The study substantiates that creating pedagogical conditions aligned with sensitive periods of early childhood has a positive impact on the development of children’s ability to make independent decisions, solve problem situations, and enhance creative thinking.
Keywords: Montessori, preschool education, independent thinking, cognitive development, pedagogical approach, prepared environment, sensitive periods, creativity, child psychology, educational effectiveness, developmental competencies, innovative education

Maktabgacha ta’lim – bolaning sog’om, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladigan jarayondir.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilami amalga oshirish lozim bo’ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha taiimning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

- bolalami oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qoilanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniytarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviyaxloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha muassasalaming har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlami tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quwatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oilaga yordam berish, ulaming jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, individual qobiliyatlarini rivojlantirish va rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatishda zarur choralami ko'rish maqsadida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muasasalarida ta'lim berish va tarbiyalash tasdiqlangan davlat talablari asosida amalga oshiriladi. Mazkur davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

talab - biror-bir aniq yoshdagi bolalar bilishi va bajara olishi shart bo'Igan talablar majmui;

indikator - bolaning ko'z bilan ko'rishi va o'lchashi mumkin bo'ladigan ko'nikma va malakalari ko'rsatkichi.

O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish"[1] konsepsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Mazkur konsepsiya Prezident qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tizimini kompleks tarzda takomillashtirishning strategik maqsad va vazifalari belgilangan. Strategiyaning asosiy maqsadi – 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini sezilarli darajada oshirishdir. Xususan, 2030-yilgacha bu yoshdagi bolalarning taxminan **80,8 %ini maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olish** ko'zda tutilgan. Bu orqali bolalarning bilim olish, ijtimoiylashish va psixologik rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Shuningdek, strategiya maktabgacha ta'lim xizmatlarining sifatini yaxshilashni, nodavlat sektorini rivojlantirishni va maktabgacha ta'lim infratuzilmasini kengaytirishni ham o'z ichiga oladi. Bu maqsadlar orqali bolalar uchun qulay va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, pedagoglar malakasini oshirish va ta'lim resurslariga teng kirish imkoniyatini ta'minlash ko'zda tutiladi. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim bo'yicha 2030 strategiyasi O'zbekiston ta'lim tizimini uzoq muddatli rivojlantirish doirasida bolalarning erta yoshdan sifatli ta'lim olishini ta'minlash, jamiyatning intellektual va ijtimoiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi sifatini oshirish. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirish talablari quyidagi prinsiplarga asoslangan holda ishlab chiqiladi:

- jinsi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, ijtimoiy ehtiyojlari va madaniy mansubligi, salomatligi va alohida ehtiyojlaridan qat'i nazar, barcha bolalarning ta'lim tizimida teng imkoniyatliligi;
- ta'lim olish jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanish;
- ota-onalar va tarbiyachilaming hamkorligi.

Quyidagilar 0'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish dasturi talablarini bajarish vositalari hisoblanadi: -

- mustaqillik;
- ijodkorlik;
- tashabbuskorlik;
- o'zi va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyatni his qilish;
- o'zaro hurmat;

[1] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risidagi" Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

- tolerant xatti-harakat;
- vatanparvarlik;
- do‘stlik va hamjihatlik;
- jamiyat va davlatga nisbatan hurmat hissi.

Bolaning rivojlanishi va ta’lim olishi quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo’linadi:
- jismoniy rivojlanish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik;
- bilish jarayoni va atrof-muhit to‘g'risidagi bilimlarga ega bo‘lish.

Bilish jarayoni va atrof muhit to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish yo‘nalishi Mazkur yo‘nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:
- elementar matematik bilim va ko‘nikmalar
- bunda bolaning matematik, jumladan son-sanoq malakalarini rivojlantirish orqali matematik bilimlarini orttirish, mantiqiy fikrlash va muammolarini hal qilish qobiliyatlarim, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va oichov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi;
- atrof muhit to‘g‘risidagi bilimlar - bunda bola kuzatish va amaliyot orqali atrof muhit to‘g‘risida axborot oladi;
- ijod - bunda bola milliy ma’naviy meros va madaniyatni hurmat qilishga hamda o‘z hissiyotlarini musiqa, teatr va tasviriy faoliyat orqali ifodalashga o‘rganadi.

Elementar matematik bilim va ko‘nikmalar bosqichida bola:
-son-sanoq va hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi;
- predmetlarni toifalash, guruhlash va tartib bo‘yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

Atrof-muhit to‘g ‘risidagi bilimlar bosqichida bola:
- jonli va jonsiz tabiatni kuzatishi va ta’riflay olishi;
- inson tana a’zolarini bilishi lozim.

Ijod bosqichida bola:
- turli tovush va ovozlami farqlay olishi;
- tovushlami balandligi va tembriga ko‘ra farqlay olishi;
- jamoa boiib musiqiy faoliyatlarda ishtirok etishga qiziqish bildirishi;
- cholg‘ularda chalish malakalarini namoyon etishi;
- amaliy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bildirishi lozim.

Montessori pedagogikasi zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida muhim o‘rin egallovchi innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika italiyalik pedagog va shifokor Maria Montessori tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari, ichki motivatsiyasi hamda mustaqil o‘rganish qobiliyatiga asoslanadi. Montessori yondashuvining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bola tashqi majburlashsiz, o‘z qiziqishlari va ehtiyojlari asosida bilim va ko‘nikmalarni faol o‘zlashtiradi.

Mazkur metodikada:-“Bola ta’lim jarayonining markaziy subyekti sifatida qaraladi. Pedagog esa an’anaviy ta’limdagi kabi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va sharoit yaratuvchi vazifasini bajaradi. Bu yondashuvda o‘qituvchi bolaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, lekin uning o‘rniga qaror qabul qilmaydi yoki tayyor javoblarni bermaydi. Natijada, bola o‘z xatolari orqali o‘rganadi, tahlil qiladi va mustaqil xulosaga keladi, bu esa uning tafakkurini rivojlantiradi.”[2]

Montessori tizimining muhim elementlaridan biri “tayyorlangan muhit” (prepared environment) hisoblanadi. Bunday muhit maxsus didaktik materiallar, erkin harakatlanish imkoniyati va tartib asosida tashkil etiladi. Muhit shunday tashkil qilinadiki, bola o‘z ehtiyojiga ko‘ra faoliyat turini tanlay oladi va mustaqil ravishda shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ladi. Didaktik materiallar esa oddiydan murakkabga tamoyili asosida joylashtiriladi va har bir material muayyan ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 3–6 yoshdagi bolalar uchun Montessori metodikasi juda samarai hisoblanadi, chunki bu davr psixologiyada “sezgir davrlar” deb ataladi. Ushbu davrda bola ma’lum ko‘nikmalarni tez va oson

[2] Montessori M. *The Absorbent Mind*. – Adyar: The Theosophical Publishing House, 1949.

o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi. Masalan, nutq rivoji, sensor qobiliyatlar, tartib-intizomga rioya qilish, harakat koordinatsiyasi va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari aynan shu bosqichda faol shakllanadi. Montessori yondashuvi esa ushbu sezgir davrlarni hisobga olgan holda bolaga mos ta’lim muhitini yaratadi.

Montessori tizimida bolalarning kundalik faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: amaliy hayot mashg‘ulotlari, sensor rivojlanish, til va nutqni rivojlantirish, matematik tushunchalarni shakllantirish hamda madaniy va tabiiy bilimlar bilan tanishtirish. Amaliy hayot mashg‘ulotlari orqali bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qilish, tartibni saqlash, mustaqillik va mas’uliyat kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydi. Sensor materiallar esa bolalarning sezgi organlarini rivojlantirib, ularning atrof-muhitni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Shuningdek, Montessori metodikasida bolalar o‘rtasida hamkorlik va ijtimoiy muloqot muhim o‘rin tutadi. Turli yoshdagi bolalarning bir guruhda faoliyat yuritishi orqali ular bir-biridan o‘rganadi, kattalar kichiklarga yordam beradi, kichiklar esa kattalarga taqlid qiladi. Bu esa ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Montessori yondashuvi zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadlari bilan ham uyg‘unlashadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida belgilangan vazifalar — bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish va sifatli ta’lim muhitini yaratish — Montessori metodikasining asosiy prinsiplari bilan mos keladi. Shu sababli ushbu yondashuvni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim tog’risidagi” Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. “O’zbekiston-2030” srtategiyasi bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. Montessori M. *The Absorbent Mind*. – Adyar: The Theosophical Publishing House, 1949.
4. R.A.Mavlonova N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. - T.: “Fan va texnologiya”. 2018